



AXIOLOGICAL CONTENT OF DEVOTION IN THE RELATIONSHIP BETWEEN THE INDIVIDUAL AND SOCIETY

Shoira Tulabaeva

Leading Editor, Independent Researcher of the State Institution
"Institute of Geology and Exploration of Oil and Gas Fields"
 of the Ministry of Mining Industry and Geology
 Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Devotion, values, individual, society, spirituality, moral criterion, social stability, civil society, national identity, unity, spiritual foundation.

Received: 03.10.25

Accepted: 04.10.25

Published: 05.10.25

Abstract: This article philosophically analyzes the axiological meaning of the concept of devotion in the relationship between the individual and society. Loyalty has long been considered as the main spiritual and moral value that strengthens human relations and ensures social stability. In the development of society, the individual's adherence to their duty, national values, traditions, and customs is highlighted as a guarantee of social harmony and unity. The role of devotion in the formation of social institutions, civil society, and national identity is also shown. The study analyzes the expression of the concept of loyalty at the personal and social levels, as well as its significance as a spiritual criterion in the modern era. As a result, loyalty is scientifically substantiated as an axiological basis that harmonizes the relationship between the individual and society.

SHAXS VA JAMIYAT MUNOSABATLARIDA SADOQATNING AKSIOLOGIK MAZMUNI

Shoira To'laboyeva

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi
"Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti"
 davlat muassasasi yetakchi muharrir, mustaqil tadqiqotchi
 Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Sadoqat, qadriyatlar, shaxs, jamiyat, ma'naviyat, axloqiy mezon,

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxs jamiyat munosabatlarida sadoqat

ijtimoiy barqarorlik, fuqarolik jamiyati, milliy identitet, birdamlik, ma'naviy asos.

tushunchasining aksiologik mazmuni falsafiy jihatdan tahlil etiladi. Sadoqat qadimdan insoniy munosabatlarni mustahkamlovchi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida qaraladi. Jamiyat taraqqiyotida shaxsning o'z burchiga, milliy qadriyatlarga, an'ana va urf-odatlariga sodiq qolishi ijtimoiy uyg'unlik va birdamlikning kafolati sifatida yoritiladi. Shuningdek, sadoqatning ijtimoiy institutlar, fuqarolik jamiyati hamda milliy identitetni shakllantirishdagi o'rni ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda sadoqat tushunchasining shaxsiy va ijtimoiy darajalardagi ifodalanishi hamda uning zamonaviy davrda ma'naviy mezon sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Natijada, sadoqat shaxs va jamiyat munosabatlarini uyg'unlashtiruvchi aksiologik asos sifatida ilmiy asoslab beriladi.

АКСИОЛОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ПРЕДАННОСТИ В ОТНОШЕНИЯХ ЛИЧНОСТИ И ОБЩЕСТВА

Шоира Тулабоева

ведущий редактор, независимый исследователь Государственного учреждения

“Институт геологии и разведки нефтяных и газовых месторождений”

Министерства горнодобывающей промышленности и геологии

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Верность, ценности, личность, общество, духовность, моральный критерий, социальная стабильность, гражданское общество, национальная идентичность, солидарность, духовная основа.

Аннотация: В данной статье философски анализируется аксиологическое содержание понятия верности в отношениях личности и общества. Верность издавна рассматривается как основная духовно-нравственная ценность, укрепляющая человеческие отношения и обеспечивающая социальную стабильность. В развитии общества верность личности своему долгу, национальным ценностям, традициям и обычаям освещается как гарантия социальной гармонии и солидарности. Также показана роль лояльности в формировании социальных институтов, гражданского общества и национальной идентичности. В исследовании анализируется выражение понятия верности на личностном и социальном уровнях и его значение как духовного критерия в современную эпоху. В

результате лояльность научно обоснована
как аксиологическая основа,
гармонизирующая отношения между
личностью и обществом.

Kirish. Shaxs va jamiyat munosabatlarida sadoqat masalasi ijtimoiy-falsafiy tahlilni talab qiluvchi dolzarb mavzulardan biridir. Insonning o'z e'tiqodiga, burchiga, qadriyat va an'alariga sodiqligi uning ma'naviy qiyofasini belgilaydi, jamiyat taraqqiyotida barqarorlik va uyg'unlikni ta'minlaydi. Sadoqat qadimdan axloqiy-me'yoriy tushuncha sifatida qaralib, shaxsiy hayotda ham, ijtimoiy hayotda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Bugungi globallashuv sharoitida turli mafkuraviy oqimlar, madaniy ta'sirlar inson dunyoqarashi va qarashlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, shaxsning jamiyat oldidagi mas'uliyati, uning sadoqat mezonlari zamonaviy sharoitda qayta ko'rib chiqilmoqda. Sadoqatning aksiologik mazmuni, uning shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarini mustahkamlashdagi o'рни, milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirishdagi ahamiyati falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Sadoqat tushunchasi qadimdan insoniyatning eng muhim axloqiy-aksiologik kategoriyalaridan biri sifatida qaralib kelinadi. Uning mazmuni nafaqat diniy, balki dunyoviy qadriyatlar tizimida ham o'z ifodasini topgan.

Sadoqat – bu insonning o'z e'tiqodi, g'oyalari, qarashlari, vataniga, oila va yaqinlariga, shuningdek, ma'naviy-axloqiy tamoyillarga bo'lgan qat'iy sodiqligi va vafodorligidir. Shu ma'noda sadoqatning aksiologik mohiyatini anglash, avvalo, uni qadriyat sifatida o'rganishdan boshlanadi. Sharq falsafasida, xususan, konfutsiychilikda sadoqat insonning eng muhim fazilatlaridan biri sifatida ko'rilgan. Konfutsiy ta'limotiga ko'ra, “farzandning ota-onasiga, fuqarolarning davlat rahbariga sadoqati – jamiyat barqarorligi va tartibning kafolati hisoblangan” [1. 247]. Bu qadriyat “junzi” – komil inson idealining ajralmas qismiga aylangan. Avvalo, sadoqat qadriyat sifatida jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning uzluksizligini ta'minlaydi. Farzandning ota-onasiga bo'lgan sadoqati nafaqat oilaviy birdamlikni, balki milliy an'analar va ma'naviy merosning avloddan avlodga o'tishini kafolatlaydi. Shu orqali jamiyatning eng kichik ijtimoiy instituti – oila mustahkamlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shaxs va jamiyat munosabatlarida sadoqat tushunchasi qadimiy falsafiy an'analardan tortib zamonaviy ijtimoiy-falsafiy qarashlargacha doimiy ravishda tadqiqot mavzusi bo'lib kelgan. Sharq mutafakkirlari, xususan, Forobiy, Ibn Sino va Navoiy asarlarida sadoqat ko'proq shaxsiy komillik, do'stlik va adolat tamoyillari bilan bog'liq holda talqin etiladi. Masalan, Forobiy “Fozil shahar ahlining nazariyalari” asarida sadoqatni jamiyatni barqarorlashtiruvchi asosiy qadriyatlardan biri sifatida ko'rsatadi. Ibn Sino esa sadoqatni shaxsiy

barkamollikning mezoni sifatida talqin qilib, ilm, kasb va do'stlikdagi vafodorlik insonni komillikka olib borishini ta'kidlaydi.

G'arb falsafasida ham sadoqatning aksiologik mazmuni turlicha yondashuvlarda yoritilgan. Immanuil Kantning axloqiy imperativ nazariyasida sadoqat insonning burchga sodiqligi orqali ijtimoiy tartibni mustahkamlaydigan omil sifatida qaraladi. Georg Hegel esa shaxs va jamiyat munosabatlarida sadoqatni "ob'ektiv ruh"ning namoyoni sifatida tushuntirib, uni huquqiy va axloqiy munosabatlarning uzviy qismi deb hisoblaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda esa sadoqat ko'proq ijtimoiy ishonch, fuqarolik mas'uliyati va davlat barqarorligi bilan bog'liq holda o'rganilmoqda. Masalan, ijtimoiy sotsiologik adabiyotlarda sadoqat fuqarolarning davlatga, rahbarlarga va milliy qadriyatlarga sodiqligi orqali ijtimoiy birdamlikning kafolati sifatida talqin qilinadi.

Tahlil va natijalar. Antik yunon faylasuflari ham sadoqatni axloqiy qadriyat sifatida talqin qilganlar. Platon o'zining "Davlat" asarida "adolat va sadoqatni bir-biridan ajratmaydi. Unga ko'ra, haqiqiy fuqarolik jamiyatida insonning o'z burchiga, g'oyaga va do'stlariga bo'lgan sadoqati ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlaydi" [2. 44-45]. Platon nazarida adolat – har kimning o'z o'rnini bilishi va burchini bajarishi bo'lsa, sadoqat – aynan shu burchni ado etishda qat'iylik va sobitlikni ifodalaydi. Shunday ekan, insonning g'oyaga, jamiyatdagi vazifasiga va do'stlariga sadoqati uning axloqiy yetukligini ko'rsatadi, ijtimoiy uyg'unlikni vujudga keltiradi. Bu nuqtai nazardan qaraganda, sadoqat adolatning amaliy shakli sifatida ko'riladi: adolat nazariy me'yor bo'lsa, sadoqat uni hayotga tadbiiq etuvchi ijtimoiy-axloqiy kuchdir. Shu bois, haqiqiy fuqarolik jamiyatida sadoqat jamiyat a'zolari o'rtasidagi ishonchni mustahkamlab, barqarorlik va birdamlikni kafolatlaydi. Demak, Platon ta'limoti bugungi zamonaviy jamiyat falsafasida ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Aristotel esa "Nikomax axloqi"da "sadoqatni do'stlikning eng oliy shakli deb ataydi. Chunki do'stga sodiqlik – bu faqat hissiy yaqinlik emas, balki axloqiy majburiyat va vafodorlikdir" [3. 352]. Aristotelning "Nikomax axloqi" asarida sadoqatni do'stlikning eng oliy shakli sifatida talqin qilishi, uning axloqiy-aksiologik mohiyatini yoritib beradi. Chunki Aristotel uchun do'stlik nafaqat shaxsiy manfaat yoki hissiy yaqinlikka asoslanadi, balki insoniy fazilatlarining uyg'unligiga tayanadi. Do'stga sodiqlik – bu vafodorlik va mas'uliyatni o'z ichiga olgan axloqiy majburiyat bo'lib, u insonni o'z qadriyatlariga va axloqiy tamoyillariga sodiq qolishga undaydi. Mazkur qarash shuni ko'rsatadiki, sadoqat shaxsiy munosabatlarda chuqurroq ijtimoiy mazmunga ega: u do'stlikni oddiy hissiy aloqadan ko'ra yuksak ma'naviy qadriyat darajasiga olib chiqadi. Demak, Aristotel ta'kidlaganidek, sadoqat do'stlikni mustahkamlash orqali jamiyatda o'zaro ishonch, hamjihatlik va birdamlikni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Islom falsafasida sadoqat – iymon va e’tiqodning asosiy ko‘rinishlaridan biri sifatida talqin etiladi. Qur’oni karimda sadoqat (sidq va vafodorlik) Allohga, payg‘ambarga va jamiyatga bo‘lgan mas’uliyat sifatida ko‘rsatiladi. Abu Nasr Forobiy “Fozil shahar ahli” asarida “sadoqatni komil shaxsning zaruriy fazilatlaridan biri deb biladi. Uning fikricha, inson jamiyat oldidagi burchini ado etishda sadoqatli bo‘lishi kerak, aks holda “fozil shahar” buziladi” [4. 224]. Bizningcha Forobiy “Fozil shahar ahli” asarida sadoqatni komil shaxsning zaruriy fazilatlaridan biri sifatida talqin qilishi, uning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib beradi. Forobiy nazarida “fozil shahar” – bu faqatgina moddiy jihatdan mukammal jamiyat emas, balki ma’naviy barkamollikka erishgan, o‘z vazifalarini mas’uliyat bilan ado etuvchi fuqarolar jamiyatidir. Bunday jamiyatda shaxsning sadoqati – uning o‘z burchi, jamiyat qadriyatlari va maqsadlariga vafodorligida namoyon bo‘ladi. Sadoqatning buzilishi esa, jamiyatning ichki uyg‘unligi va ma’naviy asoslarini yemiradi, natijada “fozil shahar” o‘z mohiyatini yo‘qotadi. Shu jihatdan, Forobiy sadoqatni individual fazilat emas, balki jamiyat barqarorligi va komilligining kafolati sifatida talqin etadi. Demak, tadqiqotchi nuqtai nazaridan sadoqat “fozil shahar” konsepsiyasida jamiyatni harakatlantiruvchi asosiy ma’naviy kuchlardan biri hisoblanadi.

Ibn Sino ham “sadoqatni shaxsiy barkamollikning asosi sifatida ko‘radi. Unga ko‘ra, ilmga, kasbga va do‘stlikka sadoqatli bo‘lgan shaxs haqiqiy komillikka erishadi” [5. 187]. Ibn Sinoning sadoqatni shaxsiy barkamollikning asosi sifatida talqin etishi, uning axloqiy-falsafiy qarashlarida markaziy o‘rin tutadi. Ibn Sino inson komilligini nafaqat jismoniy va aqliy yetuklikda, balki ma’naviy fazilatlarining uyg‘unligida ko‘radi. Shu bois u ilmga sadoqatni – haqiqatni izlashdagi sobitlik, kasbga sadoqatni – mehnat va burchni vijdonan ado etish, do‘stlikka sadoqatni esa – insoniy aloqalarni mustahkamlovchi vafodorlik sifatida sharhlaydi. Mazkur yondashuvdan ko‘rinadiki, sadoqat shaxsning ichki dunyosida tartib va izchillikni yaratib, uni yuksak ma’naviyatga olib boruvchi kuchdir. Ibn Sino uchun sadoqat - shaxsiy kamolotning zaruriy sharti bo‘lib, u insonni ijtimoiy hayotda ham ishonchli, maqsadli va barqaror mavjudot sifatida shakllantiradi. Demak, tadqiqotchi nuqtai nazaridan sadoqat - Ibn Sino falsafasida komillikka eltuvchi poydevor sifatida talqin qilinadi.

Uyg‘onish davri mutafakkirlari sadoqatni insonning erkinligi va ijodiy faoliyati bilan bog‘liq qadriyat sifatida qayta talqin qildilar. Masalan, Makiavelli “Hukmdor” asarida davlat arbobining vatan va xalq manfaatiga sadoqatini siyosiy barqarorlikning asosi sifatida ko‘rsatadi. Yangi davr faylasuflaridan I. Kant sadoqatni axloqiy amrning muhim talabi sifatida izohlaydi. Kantning “kategorik imperativ”i shaxsning universal axloqiy qonunga sodiqligini anglatadi. Unga ko‘ra, inson o‘z va’dalariga, axloqiy majburiyatlariga sodiq qolishi – erkinlik va axloqiylik uyg‘unligini ta’minlaydi. Gegel esa sadoqatni “obyektiv ruh” konsepsiyasi doirasida talqin etadi. Unga ko‘ra,

insonning o'z xalqiga va davlatiga sadoqati – tarixiy taraqqiyotning zaruriy sharti bo'lib, milliy ruhning yuksalishida asosiy qadriyatdir.

XX asr falsafasida, xususan, ekzistensializm oqimida sadoqat insonning o'z mavjudligiga bo'lgan sodiqligi sifatida izohlanadi. J.P.Sartr uchun sadoqat – insonning o'z tanloviga mas'uliyatli yondashuvi, o'zini inkor qilmasdan hayotiy qarorlarini ongli ravishda amalga oshirishidir. Martin Xaydegger esa sadoqatni “otentiklik” (haqiqiy mavjudlik) bilan bog'laydi. Unga ko'ra, inson o'z “men”iga, mavjudligining asl mohiyatiga sodiq qolishi lozim.

Sadoqat – insonning o'z e'tiqodi, g'oyalari, ma'naviy tamoyillari va ijtimoiy majburiyatlariga qat'iy vafodorligi hamda ularni hayot faoliyatida izchil amalga oshirishga intilishidir. “Sadoqat shaxsning o'zligini anglashida, axloqiy qarorlar qabul qilishida va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarida asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi” [6]. Sadoqat nafaqat shaxsiy fazilat, balki ijtimoiy barqarorlik va birdamlikni ta'minlovchi aksiologik qadriyatdir. U insonni halollik, adolat, fidoyilik va vafodorlik kabi oliy axloqiy tushunchalar bilan bog'lab, ma'naviy barkamollik sari yo'naltiradi. Diniy-falsafiy merosda sadoqat Allohga, vatanga, oila va jamiyatga sodiqlik shaklida talqin qilingan. Zamonaviy sharoitda esa u kasbga, ilmiy izlanishga va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikda namoyon bo'ladi. Demak, sadoqat — insonni ma'naviy jihatdan mustahkamlovchi, uning hayotiy maqsadlari va ijtimoiy burchlari o'rtasida uyg'unlikni ta'minlaydigan universal qadriyatdir.

Qadriyatshunoslik (aksiologiya) nuqtai nazaridan sadoqat inson hayotining ma'naviy mezoni hisoblanadi. Qadriyat sifatida u insonning ichki dunyosini, ruhiy barkamolligini va ijtimoiy faoliyatini belgilovchi mezon vazifasini bajaradi. Inson o'z qadriyatlari asosida qaror qabul qiladi, xatti-harakatini tanlaydi. Shu nuqtada sadoqat – hayotiy qarashlarni mustahkamlovchi va ularni izchil amalga oshirishga yo'naltiruvchi kuchdir. Masalan, shaxsning o'z e'tiqodiga sadoqati uni muayyan axloqiy tamoyillardan og'ishmay yashashga undaydi.

Sadoqat boshqa axloqiy kategoriyalar bilan bevosita aloqada. U adolat, halollik, fidoyilik, vafodorlik kabi tushunchalar bilan uyg'unlashadi. Agar adolat jamiyatda tartib va barqarorlikni ta'minlasa, sadoqat bu tartibning ichki psixologik tayanchini yaratadi. Halollik insonning o'z nafsiga xiyonat qilmasligini bildirsa, sadoqat uning doimiylik va mustahkamlik darajasini ko'rsatadi. Shu tariqa, sadoqat axloqiy qadriyatlarning uzviy qismi bo'lib, insonni o'zligiga va jamiyatiga sodiq bo'lishga da'vat etadi. Aksiologik yondashuvda “sadoqat insonning o'zini kim sifatida ko'rishi va tan olishi bilan bog'liq. Shaxs o'zini qaysi qadriyatlarga sodiq deb bilsa, ularning asosida o'z “men”ini shakllantiradi” [7. 272]. Bu jarayon shaxsiy identifikatsiyaning asosi bo'lib, o'zini anglashni mustahkamlaydi. Masalan, vatanparvar insonning o'z xalqiga bo'lgan sadoqati uning ijtimoiy faoliyatida, kasbiy tanlovida va hayotiy qarorlarida namoyon

bo'ladi. Shu ma'noda sadoqat – shaxsning mavjudligining ichki poydevori, uning hayot falsafasini belgilovchi asosiy qadriyatlardan biridir.

Jamiyat taraqqiyoti davomida sadoqat ijtimoiy qadriyat sifatida ham yuksak o'rin egallaydi. Sadoqatli fuqaro jamiyatning barqarorligi va birligiga xizmat qiladi. Chunki u o'z xalqiga, davlatiga, milliy qadriyatlarga sodiq qoladi. Bu jihatdan sadoqat ijtimoiy integratsiyani ta'minlovchi omil bo'lib, kishilarni umumiy g'oya va maqsad atrofida birlashtiradi. Shu boisdan ham siyosiy falsafa va ijtimoiy nazariyalarda sadoqat davlat va jamiyat barqarorligining asosiy shartlaridan biri sifatida qaraladi. Qadriyatshunoslik nuqtai nazaridan "sadoqat nafaqat individual, balki ijtimoiy hayotda ham mezon vazifasini bajaradi. U orqali insonning qadr-qimmati, jamiyat oldidagi mas'uliyati, o'z g'oya va e'tiqodlariga vafodorligi baholanadi. Bu esa sadoqatni qadriyatlar ierarxiyasida yuksak o'ringa olib chiqadi" [8. 607]. Masalan, insonning do'stlikda sadoqati uning ishonchliligini bildirsa, kasbiy faoliyatdagi sadoqati uning ma'naviy burchini bajarayotganligini ko'rsatadi.

Globallashuv, axborotlashuv va texnologik taraqqiyot davrida ham sadoqatning qadriyat sifatidagi mazmuni o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Aksincha, u yangi ijtimoiy sharoitlarda yangicha mazmun kasb etmoqda. Masalan, raqamli jamiyatda shaxsning o'z kasbiga, ilmiy izlanishlariga, ijtimoiy mas'uliyatiga sodiq qolishi ma'naviy barkamollikning muhim ko'rsatkichiga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, sadoqat nafaqat an'anaviy, balki zamonaviy qadriyatlar tizimida ham universal ahamiyat kasb etadi.

Faylasuflarning umumiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, sadoqat: birinchidan, qadimdan inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlovchi oliy qadriyat sifatida qaralgan; ikkinchidan, shaxsning o'zini anglashida, ma'naviy barkamolligida va ijtimoiy burchini bajarishida asosiy mezon bo'lib kelgan; uchinchidan, turli davrlarda turlicha talqin etilgan bo'lsa-da, uning mohiyati – vafodorlik, qat'iyat va ma'naviy mustahkamlikdan iboratdir; to'rtinchidan, zamonaviy davrda ham ijtimoiy birdamlik va shaxsiy erkinlikni uyg'unlashtiruvchi aksiologik kategoriya sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Sadoqat qadriyat sifatida insoniyat ma'naviy merosining ajralmas qismidir. Uning aksiologik mazmuni shundaki, u insonning axloqiy tanlovlarini, ijtimoiy faoliyatini va shaxsiy hayotiy qarashlarini belgilaydi. Insoniyat tarixida sadoqat eng oliy qadriyatlar qatorida turib, bugungi kunda ham jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy birdamlik va shaxsiy barkamollikning muhim omili sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shu bois falsafiy qarashlarda sadoqatni qadriyat sifatida chuqur o'rganish va uni amaliy hayotga tatbiq etish dolzarb vazifalardan biridir.

Xulosa va takliflar. Birinchidan, sadoqat shaxs va jamiyat munosabatlarining ma'naviy-axloqiy poydevori bo'lib, u insonni o'z burchi, qadriyatlari va ijtimoiy mas'uliyatiga sodiq

qolishga undaydi. Bu qadriyat shaxsning axloqiy kamolotini belgilabgina qolmay, jamiyat barqarorligi va birdamligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida ham namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, sadoqat qadimiy falsafiy an'analarda adolat, vafodorlik va axloqiy majburiyat bilan uyg'un tushunilgan. Platon, Aristotel, Forobiy va Ibn Sino qarashlari shuni ko'rsatadiki, sadoqatsiz jamiyatda ijtimoiy uyg'unlik yo'qoladi. Shu bois, sadoqat shaxsiy fazilat bo'lishdan tashqari, jamiyatning ma'naviy birligini saqlab qoluvchi aksiologik kuch sifatida qadrlanadi.

Uchinchidan, oila, do'stlik, kasb va ilm sohalarida sadoqat insonning hayotiy tamoyillarini belgilaydi. Farzandning ota-onaga, fuqarolarning davlatga va insonning jamiyat oldidagi burchiga sadoqati ijtimoiy tartib va barqarorlikni mustahkamlaydi. Bu jihat sadoqatni nafaqat individual, balki ijtimoiy hayotning strategik qadriyatiga aylantiradi.

To'rtinchidan, zamonaviy globallashuv sharoitida turli mafkuraviy oqimlar shaxs ongiga ta'sir ko'rsatayotgan bir davrda sadoqatni saqlash va rivojlantirish ijtimoiy zaruratga aylanmoqda. U milliy identitetni, qadriyatlar tizimini va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashda asosiy rol o'ynaydi. Shu ma'noda, sadoqat zamonaviy jamiyatning axloqiy immuniteti sifatida qaralishi lozim.

Beshinchidan, sadoqatning aksiologik mazmuni shaxs va jamiyat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash, barqarorlikni ta'minlash va ma'naviy uyg'unlikni shakllantirishda yaqqol namoyon bo'ladi. U jamiyat taraqqiyotida shaxsiy burchni ado etish, milliy qadriyatlarni asrash hamda ma'naviy yuksalishni kafolatlaydigan universal qadriyat sifatida o'zining dolzarb ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Mavzuni o'rganish bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish o'rinli bo'ladi deb hisoblaymiz:

- Oila institutida farzandlarga ota-onaga hurmat va sadoqatni singdiruvchi tarbiyaviy dasturlarni kuchaytirish lozim. Bu qadriyatni erta yoshdan anglash shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatni mustahkamlaydi.

- Ta'lim tizimida falsafa, ma'naviyat va axloq fanlari orqali sadoqatning adolat, vafodorlik va mas'uliyat bilan bog'liqligi tushuntirilishi, yoshlarning qadriyatlarga ijobiy munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

- Davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyatida ishonchni mustahkamlash maqsadida rahbarlar va fuqarolarning o'zaro sadoqati, adolat va mas'uliyatga asoslangan ijtimoiy shartnomalar targ'ib etilishi zarur.

- Globallashuv sharoitida yoshlar ongini turli mafkuraviy xatarlardan himoya qilish uchun sadoqatga asoslangan milliy identitetni rivojlantirish, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalarda ma'naviy targ'ibotni kuchaytirish lozim.

- Jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida o'zaro ishonch va birdamlikni kuchaytirish uchun madaniy-ma'naviy tadbirlar, "ustoz-shogird" an'anasi, hamkorlik loyihalari orqali sadoqat qadriyatini amalda namoyon etishga yo'naltirilgan mexanizmlar ishlab chiqilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Конфуцианский трактат «Чжун юн»: Переводы и исследования / сост. А.Е. Лукьянов; пер. Д. Конисси, В.Г. Бурова, А.Е. Лукьянова, В.Б. Югай. М.: Вост. лит., 2003. 247 с.
2. Платон. Жизненный и творческий путь Платона / Собрание сочинений. В 4 т. Т.1 / Общ. ред. А. Ф. Лосева и др. – М.: Мысль, 1994. (Серия «Философское наследие»). – С.44-45.
3. Арасту. Ахлоки Кабир. М.Махмудов таржимаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 352 б.
4. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. Масъул мухаррир М.Хайруллаев. – Тошкент: Халқ меъроси, 1993. – 224 б.
5. Абу Али Ибн Сина. Трактат об этике. Избранное. Том.2. – Душанбе-Ашхабад, 2003. – 187 с
6. Nazarov Q.N «Qadriyatlar tizimi: Barqarorlik va o'zgaruvchanlik dialektikasi (aksiologiyaning ijtimoiy-falsafiy muammolari) Falsafa fanlari doktori darajasi uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent – 1996.
7. Қаҳҳорова М. Жамиятда маънавий-ахлоқий муҳит: муаммо ва ечимлар. Фал. фан. док. ... диссер. – Тошкент, 2012. – 272 б
8. Nazarov Q.N. Jahon falsafasi qomusi. 2-kitob. – T.: —O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2022. 607 bet.